



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)


2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G'. R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabalrning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners.....	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv.....	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili.....	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida.....	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века.....	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана.....	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	

UMUMTA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MEDIA VA AXBOROT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi

Oriental Universiteti "Uzluksiz ta'lim pedagogikasi" kafedrası
1-bosqich mustaqil tadqiqotchi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligi (MAS) kompetensiyalarining o'рни ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy raqamli muhitda ta'lim muassasasi rahbaridan nafaqat an'anaviy pedagogik va metodik bilimlarga ega bo'lish, balki axborot oqimlarini tanqidiy baholash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini ham talab etishi bilan izohlanadi.

Maqolada mavjud nazariy modellar, UNESCO tavsiyalari va milliy ta'lim siyosati hujjatlari asosida maktab direktorlarida media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: media va axborot savodxonligi, maktab direktori, boshqaruv samaradorligi, raqamli kompetensiya, ta'lim menejmenti, axborot madaniyati.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of Media and Information Literacy (MIL) competencies in enhancing the management effectiveness of general secondary school principals. The relevance of the study lies in the fact that, in today's digital environment, educational leaders are required not only to possess traditional pedagogical and methodological knowledge but also to critically evaluate information flows, effectively utilize digital technologies, and ensure information security.

Based on existing theoretical models, UNESCO recommendations, and national educational policy documents, the article identifies key directions for improving the Media and Information Literacy development model for school principals.

Key words: media and information literacy, school principal, management effectiveness, digital competence, educational management, information culture.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ роли компетенций медиа- и информационной грамотности (МИГ) в повышении эффективности управления директоров общеобразовательных школ. Актуальность исследования обусловлена тем, что в условиях современной цифровой среды от руководителя образовательного учреждения требуется не только владение традиционными педагогическими и методическими знаниями, но и способность критически оценивать информационные потоки, эффективно использовать цифровые технологии и обеспечивать информационную безопасность.

В статье определены направления совершенствования модели развития медиа- и информационной грамотности директоров школ на основе существующих теоретических моделей, рекомендаций ЮНЕСКО и национальных документов в сфере образовательной политики.

Ключевые слова: медиа- и информационная грамотность, директор школы, эффективность управления, цифровая компетентность, образовательный менеджмент, информационная культура.



KIRISH

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ta'lim sohasiga keng kirib kelishi ta'lim muassasalari rahbarlariga nisbatan sifat jihatidan yangi talablar qo'yimoqda. Bugungi kunda maktab direktori nafaqat pedagog va administrator sifatida, balki axborot muhitini boshqara oladigan, raqamli vositalardan strategik foydalanuvchi va tanqidiy fikrlovchi lider sifatida ham baholanishi zarur ^[1].

Bu vaziyat media va axborot savodxonligi (MAS) tushunchasini ta'lim menejmentining markaziy elementlaridan biriga aylantirmoqda. MAS deganda shaxsning turli manbalardagi axborotni izlash, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va tarqatish qobiliyati, shuningdek, media vositalarining jamiyatdagi funksiyalarini tushunish ko'nikmasi nazarda tutiladi ^[2].

UNESCO tomonidan 2013-yilda ishlab chiqilgan Media va axborot savodxonligi dasturi ushbu kompetensiyalarni demokratik jamiyatda fuqarolik faolligining asosi sifatida belgilagan bo'lsa-da, keyingi yillarda MASning ta'lim boshqaruvidagi ahamiyati ham ilmiy tadqiqotlarda keng tasdiqlanmoqda ^[3].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish va maktab boshqaruvini modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasida maktab direktorlarining professional kompetensiyalarini yangilash, jumladan, raqamli va axborot savodxonligi sohasidagi tayyorgarligini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan ^[4].

Ammo amaliyotda MAS direktorlar uchun mo'ljallangan malaka oshirish dasturlarida hali to'liq tizimli o'rin olmagan. Bu esa o'quv muassasasi rahbarlarining axborot muhitini samarali boshqarishiga to'sqinlik qilmoqda. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab rahbarlarining MAS darajasi ularning kadrlar bilan ishlash sifatiga, jamoaviy qaror qabul qilish jarayoniga va tashkilot ichki kommunikatsiya madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[5].

Shu sababli ushbu maqolaning asosiy maqsadi mavjud nazariy va metodologik yondashuvlarni tahlil etish orqali maktab direktorlari uchun media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot sof nazariy xarakterga ega bo'lib, u mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil etish va shaxsiy ilmiy-konseptual xulosalar chiqarish metodiga asoslanadi. Tadqiqot manbalari sifatida UNESCO hujjatlari, O'zbekiston va MDH mamlakatlari ta'lim siyosatiga oid normativ hujjatlar, shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning media va axborot savodxonligi hamda ta'lim menejmentiga bag'ishlangan ilmiy ishlari tanlab olindi.

Adabiyotlar tahlili jarayonida maktab rahbarlarining media va axborot savodxonligi kompetensiyalariga oid nazariy modellar, raqamli ta'lim muhitida liderlik masalalari hamda axborot madaniyati konsepsiyalari qiyosiy usulda o'rganildi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda media va axborot savodxonligi hamda ta'lim menejmentining kesishish nuqtasi so'nggi o'n yil ichida faol o'rganilmoqda. Hobbs o'zining fundamental ishida media savodxonligini ta'lim rahbarining professional kompetensiyalari tizimiga integratsiya qilish zarurligini asoslab, media va axborot savodxonligisiz rahbar zamonaviy axborot muhitida strategik rejalashtirish, inqirozli kommunikatsiya va jamoani motivatsiya qilish funksiyalarini to'liq bajara olmasligini ko'rsatib bergan ^[6].

Bu mulohaza ayniqsa maktab direktorlari uchun dolzarbdir, chunki ular bir vaqtning o'zida o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar, mahalliy hokimiyat organlari va ommaviy axborot vositalari bilan faol muloqotda bo'lishlari shart. Shunga o'xshash pozitsiyani Grizzle va Wilson ham UNESCO platformasi doirasida ishlab chiqqan bo'lib, ular media va axborot savodxonligini rahbar shaxsining axborot-kommunikatsion muhitda samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan "ikkinchi savodxonlik" sifatida ta'riflaganlar ^[3].

Rossiya ilmiy maktabida axborot madaniyati va ta'lim menejmentining o'zaro bog'liqligi Gendina asarlarida keng yoritilgan. Muallif axborot madaniyatini rahbar kompetensiyasining alohida qatlami sifatida ko'rib, uni axborotni qidirish, tanlash, qayta ishlash va professional faoliyatda qo'llash ko'nikmalarining yig'indisi sifatida belgilaydi ^[7].

Gendina yondashuvida axborot madaniyati va media savodxonligi bir-birini to'ldiruvchi, ammo mazmunan farqlanuvchi tushunchalar sifatida taqdim etiladi: birinchisi ko'proq axborot bilan ishlashning kognitiv va texnik jihatlarini, ikkinchisi esa tanqidiy idrok hamda ijtimoiy-kommunikativ o'lchamni qamrab oladi. Bu farqlanish maktab direktori uchun media va axborot savodxonligi modelini loyihalashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u kompetensiyalarni to'g'ri tuzilmashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston kontekstida maktab direktorlarining raqamli kompetensiyalari masalasi Yusupova va Xoliqova tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular milliy ta'lim tizimidagi boshqaruv muammolarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nuqtai nazaridan tahlil qilganlar ^[4]. Tadqiqotchilarning fikricha, O'zbekistondagi maktab direktorlarining katta qismi raqamli vositalardan asosan hisobot yuritish va hujjatlar bilan ishlash uchun foydalanadi,

axborotni tanqidiy tahlil qilish, media kontentni baholash hamda raqamli xavflarni boshqarish ko'nikmalari esa jiddiy rivojlantirishni talab qiladi. Bu holat maktab boshqaruvida media va axborot savodxonligi tizimli ravishda rivojlantirilmaganidan dalolat beradi hamda mavjud malaka oshirish dasturlarining cheklanganligini ko'rsatadi.

Sheen va Harris maktab rahbarlarining raqamli liderlik funksiyalarini tahlil qilib, ularni uchta asosiy blokka ajratgan:

- *birinchisi* - axborot boshqaruvi (axborot oqimlarini boshqarish, ma'lumotlar xavfsizligi, raqamli hujjat yuritish);
- *ikkinchisi* - media kommunikatsiya (maktab imijini shakllantirish, ota-onalar va jamoatchilik bilan raqamli aloqalarni yo'lga qo'yish);
- *uchinchisi* - pedagogik raqamli liderlik (o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, onlayn ta'lim sifatini nazorat qilish) ^[8].

Ushbu klassifikatsiya media va axborot savodxonligini maktab boshqaruvi kontekstida operatsionallashtirishning qulay nazariy asosi bo'lib xizmat qiladi. Biroq mualliflar ushbu modelning bir kamchiligini alohida ta'kidlaydilar: unda media va axborot savodxonligi komponentlari maktab direktorining boshqa professional kompetensiyalari bilan integratsion bog'liqlikda ko'rsatilmagan, balki alohida funksional bloklar sifatida taqdim etilgan.

Hamidov O'zbekiston umumta'lim maktablari misolida rahbarlik salohiyatini oshirish masalasini o'rganib, maktab direktorlarini tayyorlashdagi tizimli muammolarni aniqlagan ^[1]. Uning fikricha, amaldagi malaka oshirish dasturlari asosan qonunchilik va ma'muriy jihatlarni qamrab oladi, zamonaviy axborot muhitiga moslashish, media kontentni analitik baholash hamda raqamli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish kabi kompetensiyalar esa e'tibordan chetda qolmoqda.

Bu holat maktab direktorlari uchun media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini nazariy jihatdan asoslash va amaliy jihatdan takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, media va axborot savodxonligi maktab boshqaruvida faqat texnik ko'nikma emas, balki liderlik madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etilishi kerak. Nazariy manbalardagi yondashuvlar ko'p jihatdan bir-birini to'ldiradi va maktab direktori uchun media va axborot savodxonligi modelini uchta asosiy o'lcham - kognitiv, kommunikativ va boshqaruv-strategik o'lchamlar atrofida loyihalashtirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlili asosida maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligiga media va axborot savodxonligining ta'sir etuvchi bir necha hal qiluvchi mexanizmlarini aniqlash mumkin.

Birinchi va eng muhim mexanizm - bu axborot asosida qaror qabul qilish sifatining oshishidir. Zamonaviy maktab direktori o'z faoliyatida juda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlaydi: davlat statistikasi, ilmiy-metodik tavsiyalar, ota-onalar va o'qituvchilardan keladigan axborotlar, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan ta'lim siyosatiga oid materiallar ^[9].

Ushbu axborot oqimlarini to'g'ri filtrlash, manbalar ishonchligini baholash va zarur ma'lumotlarni samarali qayta ishlash ko'nikmalarisiz rahbar noto'g'ri yoki eskirgan axborotlar asosida qaror qabul qilish xavfiga duch keladi. Media va axborot savodxonligi ana shu xavfni minimallashtiruvchi intellektual vosita sifatida namoyon bo'lib, rahbarning analitik salohiyatini kengaytiradi ^[6].

Ikkinchi mexanizm - tashkiliy kommunikatsiya madaniyatini yuksaltirishdir. Media va axborot savodxonligi kompetensiyalariga ega maktab direktori tashkilotning ichki va tashqi kommunikatsiya tizimini yanada samarali tashkil etishga qodir bo'ladi. U o'qituvchilar jamoasiga axborotni qanday yetkazish, ota-onalar bilan qaysi kommunikatsiya kanallari orqali muloqot qilish hamda mahalliy ommaviy axborot vositalari bilan qanday siyosat yuritish zarurligini aniq tushunadi ^[8].

Tashkiliy kommunikatsiya madaniyati esa bevosita maktab muhitini, o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini va pirovard natijada ta'lim sifatini belgilaydi. Ayniqsa, inqirozli vaziyatlarda - masalan, ijtimoiy tarmoqlarda maktab obro'siga putur yetkazuvchi noto'g'ri ma'lumotlar tarqalgan paytda - direktorning media savodxonligi uning vaziyatga tezkor va professional munosabat bildirish qobiliyatini ta'minlaydi ^[7].

Uchinchi mexanizm - pedagogik liderlikning raqamli o'lchamini kuchaytirishdir. Maktab direktori nafaqat administrator, balki pedagogik jarayonning yetakchisi ham hisoblanadi. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari va media savodxonligini rivojlantirish esa bevosita direktorning ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalariga bog'liq ^[5].

Agar rahbar media va axborot savodxonligi tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o'rni va metodologiyasi haqida chuqur bilimga ega bo'lsa, u o'qituvchilarni mos professional rivojlanish dasturlari bilan ta'minlashi, dars



jarayonida media kontentdan foydalanishni metodik jihatdan qo'llab-quvvatlashi hamda maktabda umumiy axborot savodxonligi madaniyatini shakllantirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilar ta'limi sifatiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi ^[10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tahlil asosida maktab direktorlari uchun media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish bo'yicha bir necha konseptual yo'nalishlarni taklif etish mumkin.

Modelning birinchi tarkibiy qismi - kognitiv media va axborot savodxonligi bloki bo'lishi kerak. Ushbu blok axborot manbalari turlarini, media tizimlarining funksiyalarini, raqamli kommunikatsiya zanjirlarini tushunish hamda axborotning ishonchligini tanqidiy baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi tarkibiy qism - kommunikativ-media blok bo'lib, u raqamli platformalarda professional kommunikatsiyani yo'lga qo'yish, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, maktabning raqamli imijini shakllantirish va inqirozli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Uchinchi blok - boshqaruv-strategik blok bo'lib, u media va axborot savodxonligi imkoniyatlarini ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasiga, kadrlar siyosatiga hamda sifat nazorati tizimiga integratsiya qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi ^[3, 8].

Modelning samaradorligini ta'minlashning muhim sharti uning maktab direktorlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga organik integratsiya qilinishidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alohida va izolyatsiyalangan treninglar media va axborot savodxonligi kompetensiyalarini tizimli ravishda shakllantirishga qodir emas ^[2].

Buning o'rniga media va axborot savodxonligi modullarini maktab menejmenti bo'yicha keng qamrovli tayyorgarlik dasturlariga integratsiya qilish, ularni strategik rejalashtirish, moliyaviy menejment, huquqiy savodxonlik kabi an'anaviy boshqaruv kompetensiyalari bilan mazmunan bog'lash zarur.

Faqat shundagina media va axborot savodxonligi maktab direktori uchun abstrakt tushuncha bo'lib qolmay, balki uning kundalik professional faoliyatida amaliy vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston kontekstida ushbu yo'nalish ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki mamlakatda maktab direktorlarini tayyorlash tizimi hozirgi vaqtda institutsional jihatdan qayta ko'rib chiqish bosqichida turibdi ^[4].

1-jadval: Maktab direktori MAS kompetensiyalari modeli: bloklari, tarkibiy elementlari va boshqaruv funksiyalari bilan bog'liqligi

MAS bloki	Tarkibiy elementlar	Bog'liq boshqaruv funksiyasi
Kognitiv blok	Axborot manbalari turlarini farqlash; manba ishonchligini tanqidiy baholash; raqamli axborot oqimlarini tahlil qilish	Strategik rejalashtirish; tahliliy qaror qabul qilish
Kommunikativ-media bloki	Raqamli platformalarda professional kommunikatsiya; ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik; maktab raqamli imidjini boshqarish; krizis kommunikatsiyasi	Tashqi aloqalar; jamoatchilik bilan munosabatlar; ichki kommunikatsiya
Boshqaruv-strategik blok	MAS imkoniyatlarini rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish; o'qituvchilar raqamli kompetensiyasini boshqarish; axborot xavfsizligini ta'minlash	Kadrlar siyosati; sifat nazorati; institutsional rivojlanish

Yuqorida keltirilgan jadval maktab direktori media va axborot savodxonligi modelining uchta bloki o'rtasidagi funksional munosabatlarni yaqqol ko'rsatib, har bir kompetensiya qatlamining aniq boshqaruv sohasiga qanday proyeksiya qilinishini tizimlashtiradi. Jadval tahlilidan ko'rinadiki, kognitiv blok asosan strategik va analitik boshqaruv funksiyalariga xizmat qilsa, kommunikativ-media bloki tashkilotning ichki va tashqi aloqa tizimini to'liq qamrab oladi, boshqaruv-strategik blok esa media va axborot savodxonligi kompetensiyalarini institutsional rivojlanish jarayoniga bevosita integratsiya qilish vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Muhim jihat shundaki, uchala blok bir-biridan izolyatsiyalangan holda emas, balki o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi kerak. Kognitiv bazasiz kommunikativ ko'nikmalar yuzaki xarakter kasb etadi, kommunikativ salohiyatsiz esa boshqaruv-strategik qarorlar jamoa tomonidan qabul qilinmaydi va amaliyotga samarali tatbiq etilmaydi. Aynan shu uch qatlamli integratsiya maktab direktorining media va axborot savodxonligi kompetensiyasi orqali boshqaruv samaradorligiga real ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada bayon etilgan nazariy tahlil maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligi va media hamda axborot savodxonligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ishonchli tarzda asoslab berdi. Raqamli axborot muhitida maktab rahbari uchun media va axborot savodxonligi kompetensiyalari ixtiyoriy qo'shimcha bo'lib qolmay, balki professional menejment salohiyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili asosida aniqlangan uchta mexanizm - axborotga asoslangan qaror qabul qilish sifati, tashkiliy kommunikatsiya madaniyati va pedagogik raqamli liderlik - maktab direktori media va axborot savodxonligi modelining konseptual yadrosini tashkil etadi.

Taklif etilgan model - kognitiv, kommunikativ-media va boshqaruv-strategik bloklardan iborat uch qatlamli tuzilma - maktab direktorlarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga integratsiya qilinishi zarur bo'lgan ilmiy asoslangan yondashuvni ifodalaydi. Ushbu model nafaqat media va axborot savodxonligi kompetensiyalarini tizimlashtiradi, balki ularni zamonaviy ta'lim menejmenti talablari bilan mazmunan bog'laydi.

O'zbekiston milliy ta'lim tizimi uchun ushbu model ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mamlakatda maktab boshqaruvini modernizatsiya qilish siyosati izchil davom ettirilmoqda va rahbar kadrlarni yangi talablar asosida tayyorlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Kelgusida ushbu modelni maktab direktorlari malakasini oshirish dasturlariga tatbiq etish hamda uning samaradorligini har tomonlama baholash ilmiy jihatdan muhim vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov J. O'zbekiston umumta'lim maktablarida rahbarlik salohiyatini oshirish muammolari // Ta'lim va rivojlanish. - Toshkent, 2020. - №3. - B. 45-52.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Media savodxonligi: nazariya va amaliyot. - Toshkent: O'zbekiston, 2019. - 184 b.
3. Grizzle A., Wilson C. Media and Information Literacy: Curriculum for Teachers. - Paris: UNESCO, 2011. - 192 p.
4. Yusupova M., Xoliqova D. Maktab direktorlarining raqamli kompetensiyasi: muammo va yechimlar // Pedagogika va psixologiya. - Toshkent, 2021. - №2. - B. 67-75.
5. Potter W.J. Media Literacy. 8th edition. - London: SAGE Publications, 2016. - 456 p.
6. Hobbs R. Create to Learn: Introduction to Digital Literacy. - New York: Wiley-Blackwell, 2017. - 322 p.
7. Гендина Н.И. Информационная культура личности: диагностика, технология формирования. - Кемерово: КемГУКИ, 2007. - 143 с.
8. Sheen M., Harris R. Digital Leadership in Schools: Principles and Practice. - Melbourne: ACER Press, 2019. - 278 p.
9. Давыдова Н.Н., Федоров В.А. Управление образовательными системами в условиях информатизации // Образование и наука. - Екатеринбург, 2015. - №5. - С. 32-47.
10. UNESCO. Global Media and Information Literacy Assessment Framework: Country Readiness and Competencies. - Paris: UNESCO, 2013. - 210 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.